

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR HAYOTI VA IJODI UMUMTA'LIM  
MAKTABALARIDA O'RGANILISHI

Adolat Nuralieva  
O'zbekiston Milliy universiteti  
O'zbek adabiyotshunosligi kafedrasi  
O'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Bobirning umumta'lismaktablarida hayoti va ijodi o'rganilishi, 7-11 sinflarda asarlari va g'azallari o'qitilishi to'g'risida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** umuta'lismaktab darsligi, Zahiriddin Muhammad Bobirning umumta'lismaktablarida hayoti va ijodi o'rganilishi, talqini, tahlili.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается изучение жизни и творчества Захириддина Мухаммада Бобура в общеобразовательных школах, преподавание его произведений и газелей в 7-11 классах.

**Ключевые слова:** общеобразовательный школьный учебник, изучение, интерпретация, анализ жизни и деятельности Захириддина Мухаммада Бобура в общеобразовательных школах.

**Annotation:** This article is about studying the life and work of Zahiriddin Muhammad Babur in secondary schools, teaching his works and ghazals in grades 7-11.

**Keywords:** general education school textbook, study, interpretation, analysis of the life and work of Zahiriddin Muhammad Babur in general education schools.

Zahiriddin Muhammad Bobur o'rta asr Sharq madaniyati, adabiyoti va she'riyatida o'ziga xos o'rinnegallagan adib, shoir, olim bo'lishi bilan birga yirik davlat arbobi va sarkarda hamdir. Zahiriddin Muhammad Bobur keng dunyoqarashi va mukammal aql-zakovati bilan Hindistonda Boburiylar sulolasiga asos solib, bu mamlakat tarixida davlat arbobi sifatida ulug' nomi qoldi.

Zahiriddin Muhammad Bobur 1483 yilning 14 fevralida Andijonda, Farg'ona ulusining hokimi Umar Shayx Mirzo oilasida dunyoga keldi. Otasining vafotidan so'ng o'n ikki yoshida Farg'ona viloyatiga podshoh bo'lgan Bobur buyuk shajara asoschisi xisoblanmish buyuk sarkarda Amir Temurdan keyin parchalanib ketgan sultanatni tiklamoqchi bo'ldi. U podshoh sifatida lashkar tortib shohlarga xos mag'lubiyatlarning achchiq alamlariyu zafarlarining ulug'vor nashidalarini surishini ko'p marotaba o'z boshidan kechirdi. Otasi singari ulug' himmatli va oliy maqsadli shaxs bo'lganligidan Farg'ona viloyatini kichik joy deb hisoblab, Samarcandga intildi. U yerda Shayboniyxonadan yengilab, Kobulga keldi va keyin Hindistondek bepayon yirik mamalakat hukumdoriga aylandi.<sup>1</sup>

Buyuk shoh Bobur Hindistonda temuriylarga xos ulug' bunyodkorlik an'analarini davom ettiradi: muhtasham qasrlar tiklash, ariq-kanallar qazish, bog'-rog'lar bunyod etish,

adabiyot, ilm-fan rivojiga homiylik qilish, elni adolat bilan boshqarish singari fazilatlar keyinchalik Hindistonning buyuk donishmand farzandi, davlat arbobi Javohirla'l Nehru o'zining "Hindistonning ochilishi" va "Jahon tarixiga bir nazar" asarlarida Zahiriddin Muhammad Bobur haqida samimiyatga to'liq ushbu fikrlarni izhor etgan:

"Bobur – dilbar shaxs. Uyg'onish davri hukumdonining haqiqiy namunasidir. U mard va tadbirkor odam bo'dgan. Bobur o'ta madaniyatli va jozibali insonlar orasida eng yetuk insonlardan biri edi. U mas'habparastlik kabi cheklanishdan va mutaassiblikdan yiroq edi.... Bobur san'at va, ayniqsa, adabiyotni sevardi".<sup>2</sup>

Hindiston davlatini Bobur nainki mamlakatda siyosiy ahvolni o'zgartirdi, balki sultanatni g'arbiy viloyatlar bilan birlashtirdi. Kushon rojaliklaridan keyin Avg'oniston va Hindistonning o'zaro aloqalari uzilgan va sobiq "Turk sultonlari" hukumronligida chegaralar qarovsiz holga tushgan edi. Bobur esa Avg'oniston va Hindiston o'rtasida sultanatni barpo qilib, so'ng o'rtadagi shimoliy va janubiy chegaralarini mustahkamladi. Bu sulola Hindistonda uch yuz yildan oshiq hukumronlik qildi.

1. To'xliyev B, Karimov B, Usmonova K. Adabiyot (O'rta ta'lim mussasalarininng 11-sinfi va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'quvchilari uchun darslik-majmua. Birinchi nashr. I qism). T.: O'zbekiston milliy enskllopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, 2018. – B. 160.

2. Захириддин Мұхаммад Бобир. Бобурнома. Халқаро Бобур фондиги. Т.: Үқитувчи нашириёт-матбаа ижодий уйи. 2008. Б – 3-4

Buburiylar davrida Hindistonda ilm-fan, adabiyot va san'at rivojlandi. Qizil Qal'a, Toj Mahal singari dunyoga mashhur me'moriy obidalar qurildi.

Buyuk davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining 47 yillik umri mobaynida ikki devon tuzdi, nazm yo'lida "Mubayyan" ("Bayon etilgan") asarini yaratib, shu bilan ko'pchilik tomonidan foydali deb topilgan islomiy huquqshunoslikka doir ta'limotning muallifi bo'ldi. "Risola-yi validiya" nomli she'riy asarni tarjima qildi. Serjilo o'zbek tilida yozilgan "Boburnoma" asari bilan jahoning mashhur tarixnavis olimlari qatoridan joy oldi. Uning bequsurlikda yagona hamda jo'n uslubda yozilgan "Tarixi turkiy" mukammal asarlaridandir. Uning nafis g'azal va ruboilyari turkiy she'riyatining eng nodir durdonalari bo'lib, "Xatti Boburiy" deb nomlangan yangi alfavitni tuzdi, aruz, qofiya, musiqa va harbiy ishga oid risolalari bilan ilmga yuksak darajada hissa qo'shdi. "Harb ishi", uning she'riyat nazariyasiga oid yaratgan "Aruz risolasi" asari esa Alisher Navoiyning "Mezon ul-avzon" asaridan so'ng o'zbek aruzi haqida yozilgan ikkinchi yirik risola bo'ldi, qolaversa islam qonunshunosligi, she'riyat va til nazariyasi sohalariga munosib hissa bo'lib qo'shildi.<sup>1</sup>

Uluksiz ta'limning umumta'lim bosqichining 7 sinf darsligida o'zbek adabiyotining yirik vakillaridan biri, yozuvchi, tarjimon, adabiyotshunos olim Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" romanidan bir bob berilgan. Mazkur romanda Temuriylar sulolasining so'nggi vakillaridan biri, shoh, shoir va olim Zahiriddin Muhammad Boburning ziddiyatlarga to'la hayoti haqida hikoya qiladi. Pirimqul Qodirov "Yulduzli tunlar" romani ustida o'n yil ishladi. Ish jarayonida u Bobur hayotiga oid manbalarni o'rgandi, Bobir bo'lgan joylarga sayohat

qildi. Asar bir qancha tillarga tarjima qilindi, muallif esa mazkur asari uchun davlat mukofati bilan taqdirlandi.

1. S. Xasanov. Boburning Aruz risolasi.T.: O'zbekiston SSR "Fan" nashriyoti. 1981. B-5

"Yulduzli tunlar" romanida asosan o'quvchi yoshlarning yosh jihatlari inobatga olinib, bir bo'limi darslikda taqdim etilgan. Romanda o'z xalqiga yillar davomida zulm qilgan, ocharchilikni yuzaga keltirgan, begunoh insonlarning behuda qonini to'kishda to'xtamaydigan Ibrohim Lo'dining xaqiqat uchun kurashib, Hindistonning Panipantida bo'lib o'tgan jangda g'alaba qozongan temuriylar sulolasining vakili Zahiriddin Muhammad Bobur shaxsi to'g'risida voqealar davomiyligi kuzatiladi. Ibrohim Lo'dining onasi malika Baydaga "mo'tabar onamizdek ehtirom ko'rsatilsin – deya Boburning adolatliligi, sahovatliligi, oqko'ngil va sofdil shoh ekanligidan dalolat berishi o'quvchi yoshlarni ta'limgartarbiya, ulug' insoniylik fazilatlarini nomoyon eta olish, mardlik, jasoratli bo'lishga undaydi. Aslida dushmani bo'lsada Ibrohim Lo'dining o'g'li Bahodirni saroyda yetarli darajada tarjimonlar bo'lsada, fors va sanskrit yozuvlarini tarjima qilish asnosida o'z yoniga olishi, ishonch bildirilishi, buyuk marhamat ko'rsatilishi, e'zozda bo'lishi insoniylikning eng oliy himmati maqomida bo'lgan odil shohni yaqqol ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Mo'tabar onadek ko'rilsin deb dushmanining onasi lutf qildi, e'zozladi, ardoqladi, saroy eshiklari keng ochildi.....

Lekin farzandining qasos o'tida lovillab yongan ona timsoli o'z kuchini ko'rsatdi. G'aliz niyatları, yillar davomida rejalashtirgan yovuzlik amalga oshdi. Malika Bayda qulay vaziyatni kutib, o'ziga o'xshagan qasos alamida bo'lgan odamlar bilan til biriktirib shohni zaharlashning uddasidan chiga olishdi. Butun umri davomida faqat zaxmatlar chekkan, vatanidan yiroqda, o'zga yurtlarda sarson, tengsiz aql-zakovati ila, mustahkam iroda, metndek sabr-bardosh egasi bo'lmish buyuk shoh Bobir Ibrohimning onasi tomonidan zaharlandi.

Saroy tabiblarining, sodiq do'stlaridan biri Tohirning ko'magi ila oyoqqa turishi shoh Bobur uchun tangri taoloning bir mo'jizasi bo'ldi, go'yo onadan qayta tug'ilgandek, allohga behisob shukurlar aytib, oldida turgan ulkan mas'uliyatlarni bajarishga chog'lanar, shukronalik shkuhi, yangicha hayot in'omi, umr yo'li bardavomligi, hayotining qadriga yetish istaklarini kuchaytirib yubordi.

Ko'rsatilgan oliy himmatga javoban, hiyonat, razolat, qasd o'tida bo'lgan shaxsga yana adolatli hukm chiqarmoq, po'latdan bo'lmish mustahkam iroda, sabr-bardoshli, cheksiz insoniylik fazilatlari jo bo'lgan shoh Bobur qasoskor onani o'zining aql-zakovati ila tirik qoldirdi, toki qotl ona ezgu ishlar qilishda davom etadigan, yaxshiliklar evaziga xalq mehrini qozonadigan, davlat rivoji yo'lida yuksak insoniylikni jamlagan holda sof vijdonlari evaziga yuksalishini ko'rsatib qo'yish uchun ham o'z ko'zi bilan ko'rib, guvohi bo'lishini, oz bo'lsada vijdoni qiynalarmikin deya tirik qoldirdi.<sup>1</sup>

Bundayin bag'rikenglik, sofdillik, aql-zakovat ila qaror chiqarmoqlik nafaqat o'quvchini, balki barcha o'quvchi kitobxonni qalbining tubida saqlanayotgan yomonliklarni

so'ndirishga, Vatanni sevishga, faqat yaxshilik tomon yuzlanishni, insoniylik fazilatlarni yuksaltirishga, tafakkur qilishga, sabrli, matonatli bo'lishga, unday oladi.

"Boburnoma" asari haqida adabiyotshunos S. Mamajonov bunday deb yozadi: "Darhaqiqat, bu asar juda ko'p fanlar uchun qimmatli bo'lgan ma'lumotlarni o'zida jamlagan qomusiy asar bo'lishi birga, akademik V. V. Bartold aytganidek, o'zbek prozasining XVI asrdagi nodir yodgorligidir". Boburning bizgacha yetib kelgan asarlari shunchalar hikmatli, ilmiy, nazariy tahlillar, sharhlar, nomlar va atamalar, tarixiy ma'lumotlarga egaki, ular haqiqatdan ham xalqning ulkan ma'naviy boyligi bo'lib qoladi. Shoh va shoir Boburning boy va ko'p qirrali merosidan davrimizning muhim vazifalarini bajarishda bizga yordam

---

1. Mirzayeva Z, Jalilov K. Adabiyot. Umumiyo'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. T.: Davlat ilmy nashriyoti. 2022. B-149

beradigan hamma yaxshi narsalarni olishimiz va foydalanishimiz lozimdir.1

Bobur shuhratda daho Alisher Navoiyning yonida turadigan mumtoz so'z san'atkori, shoir va adibdir. Badiiy mahorat bobida biror o'zbek shoh va shoiri Bobur bilan bellasha olmaydi. She'riyat uchun xos bo'lgan bir necha zaruratlar: nuqtapardozlik (yangi fikrlar ayta olish mahorati), jozibali badiiy san'atlardan me'yorida ustalik bilan foydalanish sehrgarligi va ehtiros jo'shib turgan rangin tuyg'ular talqini boburona samimiy she'riyat fazilatlaridandir. Buning ustiga uning mumtoz she'riyatiga dalil kiritgan tarjimai hollik xususiyati ham Bobur she'riyatini alohida nurlantirib turadi. Ana shu keyingi xususiyat shoirning vatanparvarlik tuyg'ulariga jon bag'ishlaydi. U ona shahri, Vatani sog'inchlarini she'rda ifodalar ekan, Hindiston shahanshoji beixtiyor o'zining andijonlik g'aribligiga kitobxon e'tiborini tortadi:

Ne yerda bo'lsang, ey gul,  
andadur chun joni Boburning,  
G'aribingg'a tarahhum aylagilkim,  
andijoniydur.2

Shoirona yurtsevarlik, vatanfidoyilik Bobur shaxsida shunchalik tantana qiladiki, buyuk imperator Bobur endi Andijondan yiroqlikni, garchi bu martaba Hindiston taxti bo'lsa ham, qismatdagi yuz qarolig', deb hisoblaydi:

1.I. Mirzayev. Bobur ma'rifati. O'qituvchi. T.: 1996. B-11

2.Заҳириддин Муҳаммад Бобир. Бобурнома. Халқаро Бобур фонди. Т.: Ўқитувчи нашириёт-матбаа ижодий уйи. 2008. Б – 5-6

Tole' yo'qi jonimg'a balolig' bo'ldi,  
Har ishnikи ayladim xatolig' bo'ldi.  
O'z yerni qo'yib, Hind sori yuzlandim,  
Yo rab, netayin, ne yuz qarolig' bo'ldi?!

She'r ta'sirchanligini ta'minlagan fikriy kashfiyat: tolesizlik, jonga balo orttirishlik, xato qilishlik, yuzi qarolik – bularning hammasi o'z yurtidan bosh olib ketishida, g'ariblikni bo'yniga olishidadir.

Bobur g'azaliyotida yurt va Vatanga muhabbat, ezgu insoniy fazilatlar tarannumi, olivjanob tuyg'ular tasviri yetakchilik qiladi. U hayotda nihoyatda jur'atli, mardona, yangiliklarga o'ch bo'lgan. Bu xislatlar uning ijodi uchun ham xosdir. Bobur lirikasida ruboiy va qit'alar ham katta mavqe tutadi. Ularda mumtoz adabiyotimizdagi yetakchi obrazlar tizimi o'ziga xos tarzda mujassamlashgan. Shu bilan birga, adib she'riyatining ijtimoiy motivlar bilan boyitishiga ham katta hissa qo'shdi. Bobur ruboilylari o'zbek ruboiynavisligi taraqqiyotida alohida bir bosqichni tashkil etadi. Ularda falsafiy teranlik, ijtimoiy xodisalarga uyg'unlik, hayot rang-barangligining nafis ifodalari, ayni paytda, o'zbek tilining o'ziga xos ifor va tarovati takrorlanmas bir tarzda mujassamlashgan.

Buyuk shoh va shoir Boburning hayoti va ijod yo'llari maktab darsliklarida 7 sinf (P.Qodirov "Yulduzli tunlar") darsligida bir bo'limdan iborat "Boburnoma" asaridan qisqa voqelik keltirilgan, nazarimizda o'quvchi avlod uchun bu yetarli manba emasdir. O'quvchilar ushbu roman orqali "Boburnoma" asari xuddi shu tarzda ekanligi tasavvur olamida gavdalanadi. Shu boisdan, buyuk tarixiy shaxsni tanishtirshni boshlang'ich ta'limdan (3-4 sinflarda) tanishtirishlik, olis masofani yaqinlashtirgani singari, oz bo'lsada poydevor yaratilmog'i lozimdir. O'quvchi avlodning yosh jihatidan kelib chiqqan holatda bosqichma-bosqich, o'zaro fanlar (Tarix, Ona tili, Geografiya, Musiqa, Tehnologiya) bilan bog'liqlik ravishda o'rgatilib borilsa maqsadga muvoffiqdir.

"Boburnoma" asari o'z ichiga ko'plab fanlarni oladi. Uning zamonida yozuvni yangilash yoki yangi xatni joriy etishga urinish oson emasdi. Chunki arab yozuvi – "Qur'on" yozuvi edi. Shuning uchun Boburiy xattini amaliyotga joriy qilish niyatida Bobur bu xatda, avvalo, Qur'oni karimdan ikki nus'ha tayyorlab, birini Makkaga, ikkinchisini Tehronga jo'natadi. Boburiy xatti haqidagi ma'lumotlarga Boburning devonida bir marotaba va "Boburnoma" asarida ko'plab marotaba duch kelamiz.

Bundayin muhim va boshqa manbalarda keltirilmagan ma'lumotlarni aynan ushbu asarni o'qitish, tanishtirish o'quvchi avlodga yetkazish vazifamizdir.

Agar "Boburnoma" yozilmaganida, bizning Husayin Bayqaro va Alisher Navoiy hayotlari, faoliyatları va ijodları, xususan shaxslari haqidagi tasavvurlarimiz anchayin yuzaki bo'lib qolgan bo'lardi. Bil'aks ushbu ma'lumotlarni asar to'laqonli berilmaganligidan maktab o'quvchilarimiz bilishmaydi. Ayniqsa, temuriylar sultanatining tanazzuli yillaridagi tarixiy jang-jadallar, inqiroz sabablari, Husayin Bayqarodek buyuk podshohning, Bobur iborasi bilan aytganda, "Temurbek o'rnida bo'lgan" Husayin Bayqaroning sustakshligi, Shayboniyxonni qaqshatqich hujum bilan yengish o'rniga mudofaa bilan cheklanganligi, Husayin Bayqaro farzandlarining bazmu sozda mohiru, jangu jadalda yaroqsizligi Bobur tomonidan tahlil etib berilgan.<sup>1</sup>

"Boburnoma"da tarixiy voqealarning yuz berishi sabab va oqibatlari o'ta puxtalik, teranlik bilan o'z talqinini topgan. Kelajak avlodimiz bilishi kerak bo'lgan asosli

ma'lumotlardan yana biri, asarda keltirilishicha Qashqadaryo viloyatining markazi Qarshi shahrining nima munosabat bilan bunday nomlanishi asarni o'qitmas

1. Zahiriddin Muhammad Bobir. Boburnoma. Xalqaro Bobur fondi. T.: O'qituvchi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2008. B – 16

ekanmiz, o'quvchi uchun noma'lumligicha qolishi ehtimoldan holi emasdir. Chunki, "qarshi" so'zi ko'plab turkiy dostonlar va tarixiy asarlarda asosan zid, ro'para, saroy, qasr, singari ma'nolarda uchrar edi, xolos. Bobur shahar nomi sifatida qo'yilgan "qarshi" so'zining mo'g'ulcha ekani, bu so'z "qabriston" ma'nosini ifodalashini izohlab, asoslashga navbat kelganida shahrning mo'g'ul istilosiga qurban bo'lganligi bilan dalillaydi. "Ya'ni Qarshi viloyatidirki, Nasaf va Naxshab ham derlar. Qarshi mo'g'ulcha otdir. Go'rxonani mo'g'ul tili bilan "qarshi" derlar. Aftidan, bu ot Chingizxon istilosidan so'ng bo'lgandir". Shahar va joy nomlarining bunday fojeiy nomlanishi Xo'jand va Konibodom o'rtasidagi Hodarvesh cho'lidagi bir voqeа bilan yana bir karra dalillangani diqqatga sazovordir. "Xo'jand bilan Kandibodom orasida bir dasht bor. Nomi – Hodarveshdir. Hamisha bu dashtda shamol esadi. Marg'inon uning sharqidadir, hamisha bundan shamol boradi. Xo'jand g'arbidadir, doim undan shamol keladi. Qattiq shamollari bor. Derlarki, bir necha darvesh bu dashtda qishda qattiq shamolga yo'liqib, bir-birlarini topolmay, "Ho, darvesh!", "Ho, darvesh!", deya-deya halok bo'libdilar. O'shandan beri bu dashtni Hodarvesh derlar". Asarda yana bir xodisotga guvoh bo'lishimiz mumkin. "Shahrisabz" shahri nomining kelib chiqishini ham muallif shu yo'sinda talqin etadi: "Bahorlar sahrosi va shahri va bomi va tomi xo'b sabz bo'lur uchun Shahrisabz ham derlar". Bobur Samarcand shahridagi Laqalaqa masjidi atamasini ham jozibali ilmiy asoslaydi: "Samarcand qal'asining ichida yana bir qadimiy imorat bor: masjidi Laqalaqa derlar. U gunbazning o'rtasida turib yerni temsalar gumbazning hammayog'idan "laq-laq" tovushi chiqadi. G'aroyib holdir. Hech kim buning sirini bilmas".<sup>1</sup>

O'zbek millati va O'zbekiston o'z shoh asari "Boburnoma" bilan jahonga tanitgan shoh va shoir o'ta zaxmatli, sinoatli hayot yo'llari va ulkan adabiy meros bo'lib qolgan ijodiyotini o'rganishimiz, yangi tadqiqotlar olib borishimiz, o'rgatishimiz, boburshunoslik yo'nalishiga o'z hissamizni qo'shishga har birimiz mas'uldirmiz. Ayniqsa, keljak egalari bo'lmish yosh avlodimizga temuriylar saltanatining vakili bu buyuk tarixiy shaxs Zahiriddin Muhammad Boburning qoldirgan ulkan nodir adabiy merosini to'laqonli o'rgatmoqlik sharaflı burchimizdir.

1. Zahiriddin Muhammad Bobir. Boburnoma. Xalqaro Bobur fondi. T.: O'qituvchi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2008. B – 21

**ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. To'xliyev B, Karimov B, Usmonova K. Adabiyot (O'rta ta'lif mussasalarinining 11-sinfi va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'quvchilari uchun darslik-majmua. Birinchi nashr. I qism). T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, 2018. – B. 160.
2. Zahiriddin Muhammad Bobir. Boburnoma. Xalqaro Bobur fondi. T.: O'qituvchi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2008. B – 4
3. I. Mirzayev. Bobur ma'rifati. O'qituvchi. T.: 1996. B-11
4. Zahiriddin Muhammad Bobir. Boburnoma. Xalqaro Bobur fondi. T.: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahriri. 2002. B-8
5. Mirzayeva Z, Jalilov K. Adabiyot. Umumiy o'rta ta'lif maktablarining 7-sinfi uchun darslik. T.: Davlat ilmy nashriyoti. 2022. B-149
6. S. Xasanov. Boburning Aruz risolasi.T.: O'zbekiston SSR "Fan" nashriyoti. 1981. B-5
7. Zahiriddin Muhammad Bobur Ensiklopediyasi. Bobur nomidagi Xalqaro jamoat fondi. Qayta ishlangan ikkinchi nashri. T.: 2017. B-7